



## 2017 yil yanvar – sentyabr oylarida amalga oshirilgan qurilish ishlari

2017 yilning yanvar– sentyabr oylarida Samarqand viloyatida 1733,5 mlrd. soʻmlik qurilish montaj ishlari bajarilib, oʻsish surʼati oʻtgan 2016 yilning shu davriga nisbatan 86,4 foizni tashkil etdi.

Shuningdek, yirik pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish montaj ishlari hajmi 111,6 mlrd. soʻmni tashkil etib, oʻsish surʼati 111,3 foizni tashkil qildi.



Jami qurilish ishlarining hajmida kichik qurilish tashkilotlari va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish montaj ishlari hajmi 45,6 foizni tashkil etdi. Kichik qurilish tashkilotlari va mikrofirmalar asosan sotish uchun moʻljallangan uy-joylarni qurish, avtomobil yoʻllarini taʼmirlash, yangi qurilish, rekonstruksiya, ijtimoiy soha obʼyektlari (maktablar, maktabgacha taʼlim muassasalari), namunaviy loyihalar asosida qurilayotgan va arzonlashtirilgan uy-joylar qurilishida oʻz faoliyatlarini amalga oshirmoqda.



Mulkchilikning nodavlat shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan 1681,7 mlrd. soʻmlik qurilish montaj ishlari bajarilgan boʻlib, jami qurilish ishlari hajmining 97,0 foizini tashkil qildi va ushbu koʻrsatkich oʻtgan yilning oʻsish surʼatiga nisbatan 0,3 bandga koʻpaydi.

Mulkchilikning davlat shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan 51,8 mlrd. soʻmlik qurilish montaj ishlari bajarilgan boʻlib, jami qurilish montaj ishlari hajmidagi ulushi 3,0 foizini tashkil qildi.



2017 yilning yanvar – sentyabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari boʻyicha bajarilgan qurilish ishlarida nodavlat mulkchilikda bino va inshootlar qurilishining ulushi 1387,6 mlrd. soʻmni tashkil qilib, oʻtgan yilning mos davriga nisbatan oʻsish surʼati 88,9 foizni tashkil qildi. Davlat mulkchiligidagi ulush esa, 28,2 mlrd. soʻmni tashkil qilib, bu oʻtgan yilning mos davriga nisbatan oʻsish surʼati 85,7 foizni tashkil qildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari boʻyicha bajarilgan qurilish ishlarida nodavlat mulkchilikdagi fuqarolik qurilish obʼyektlarining ulushi 214,3 mlrd. soʻmni tashkil qilib, oʻtgan yilning mos davriga nisbatan oʻsish surʼati 95,2 foizni, davlat mulkchiligidagi ulush esa, 20,5 mlrd. soʻmni tashkil qilib, oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 74,0 foizni tashkil qildi.

Shuningdek, ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining ulushi 79,8 mlrd. soʻmni tashkil qilib, oʻtgan yilning mos davriga nisbatan oʻsish surʼati 114,8 foizni, davlat mulkchiligidagi ulush esa, 3,1 mlrd. soʻmni tashkil qilib, oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 119,2 foizni tashkil qildi.